ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком)..... 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida)..... 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHḌA..... 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi..... 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she’riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати..... 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TESHA SAYDALIYEV SHE'RIYATIDA MAVZU VA G'OYA UYG'UNLIGI

Otaqulova Dildora Oybek qizi,
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
«Surxon tonggi» gazetasi muxbiri

Adabiyotda insonning ichki kechinmalari, o'y-xayollari, borliq haqidagi tasavvuri, turmush tarzi badiiy asarda namoyon bo'ladi. Fikr ta'sirchan, ifodali holda yetkazilsa, o'xshatish, sifatlashlar bilan mustahkamlansa lirik asar vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, yurakda hosil bo'lgan hissiyotni o'zgalar yuragiga joylab qo'yish she'riyat demakdir. Nafaqat lirik, balki badiiy asarning barcha ko'rinishining asosida mavzu va g'oya tushunchasi yetakchilik kasb etadi. Mavzu atamasi adabiyotdagi boshqa tushunchalar singari paradoks shaklda namoyon bo'ladi. Adabiyotdan yiroq shaxs ham mavzu so'zini eshitganda xayolida u yoki bu ma'lumotlar mujassamlashadi. Ammo istiloh ichiga chuqurroq sho'ng'isakgina mavzu yuzaki ko'ringandagidek sodda hodisa emasligini anglaymiz. «Mavzu» arabcha so'z bo'lib, «qo'yilgan, tartibga solingan» degan ma'noni anglatadi. Mavzu asarda tasvirlangan hayot materiali[1] deb ta'riflanadi. Biroq badiiy asar mavzusi unda qalamga olingan voqea yoki narsa-buyumlar emas. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir. Mavzu asarda berib o'tilgan hayotiy materiallardan iborat bo'ladi. Demak, mavzu bu asarda ifodalanayotgan hayotiy voqeliklar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mavzu asarning mazmuniga qarab tanlanadi.

XX asr o'rtalari o'zbek she'riyatida inson, jamiyat, vatan, ma'naviy qadriyatlar masalasi yetakchi mavzulardan biri bo'ldi. Bu davr ijodkorlari hayot voqeligini badiiy aks ettirish orqali inson ruhiyati, qalb kechinmalarini tasvirlashga intiladi. Mazkur davr o'zbek she'riyatining vakili sifatida Surxon adabiy muhitining yorqin namoyandasi shoir Tesha Saydaliyev she'riyatida ham mavzular rang-barangligi kuzatiladi. Darhaqiqat, shoir lirikasida o'zi tug'ilib voyaga yetgan yurt tasviri, insoniy kechinmalar va hayot haqidagi mushohadalar o'z ifodasini topadi.

Tesha Saydaliyevning she'rlari shoirning hassos yuragining eng tubidan qaynab, otilib chiqadi. Uning ijodida inson ruhiyati, hayot hodisalariga munosabat, milliy qadriyat, Vatanga muhabbat kabi azaliy tushunchalar poetik tasvirlar vositasida ta'sirchan ifodalanadi. Oddiy hayotiy voqealardan badiiy umumlashma yaratish mahorati shoir she'riyatiga xos mavzu doirasi hisoblansa, undagi asosiy g'oya insonni qadrlash, hayot mohiyatini anglash, ezgulik va ma'naviy poklikka intilish kabi poetik mushohadalarda namoyon bo'ladi.

Shoir she'riyati mavzu va g'oya jihatidan anchayin sodda. An'anaviy tarzda Vatan madhi, yurt tinchligi, elu xalq ta'rifi, tabiat va inson haqida yoziladi:

Yo'q, ipakday emasdir yumshoq,
Qadoqlidir sening qo'llaring.
Qachon, qayda bo'lmasin,
Har choq
Saboqlidir sening qo'llaring…[2]

Misralarda mavzu sifatida mehnatkash, tunni kunga ulab, ayol-u erkakka xos bo'lgan vazifalarni kundalik hayot tarziga aylantirgan mehnatkash o'zbek ayolining obrazini ko'rish mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlar ham turli og'ir yumushlarga tortilgani sir emas. Ma'lumki, shoir yashagan davrda sotsialistik realizm talablari kuchli bo'lgan. Davr talabi sifatida maydonga kelgan realistik tasvir shoir ijodini ham chetlab o'tmaydi. Oddiy inson, mehnatsevar xalq tasvirini shoirning bir qator she'rlarida uchratishimiz mumkin. Ularning har biri original g'oya doirasida yaratilganining guvohi bo'lishimiz tayin. Yuqoridagi misralar esa fikrimizning yaqqol dalilidir. Mehnatdan chiniqqan qo'llarda qancha kishiga saboq bo'lgulik jihatlar borligi she'rning g'oyasiga aylangan. Ayollar tasviri sinekdoxa yordamida qo'llarga ko'chirilgan.

Ochilsin deb keng, yangi yo'llar,
Shod etay deb Vatan, xalqimni,
Baxt yaratar,
Qurar bu qo'llar,
Shu qo'llarga beray qalbimni.

Har bir davr o'zbek she'riyatda buyuk inson – ona mavzusiga bag'ishlangan she'rlar ko'p uchraydi. Shoirning ham onalar mehru-muhabbatini madh etgan ijod namunalari talaygina. Ammo otalarga-

[1] Адабиётшунослик луғати. // Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.158.
[2] Сайдалиев Т. Кўнгил гавҳари: (Сайланмалар). – Термиз: Китоб нашр, 2022. – Б.15.

chi? Otalar farzandini – jigarporasini onalardan kam sevadimi? Shoirning fikricha aslo unday emas. Uning lirik qahramoni otaga ham hurmat bajo etadi:

Ey, shoir do‘stlarim,
Qalblarning sirin
Sizning she’ringizdan biladi olam.
Ulug‘langan chog‘da onalar mehrin,
Unutmang
Otalar muhabbatin ham[1].

Hayot tashvishlari, tinimsiz mehnat, oila butunligini ta’minlash uchun doimo harakatda bo‘lgan otalarning har doim ham farzandlariga vaqti yetarli bo‘lavermaydi. Shunday bo‘lsa ham farzandga mehr-muhabbat otalarni bir zum bo‘lsa-da, tark etmaydi. Ularning bekam-u ko‘st ulg‘ayishi uchun otalar o‘zlarini butun umrlarini baxsh etadi. Otalarning mehri shunchaki ichki yashirin tarzda namoyon bo‘ladi. Ular onalar singari tun-u kun farzandlari bilan ovora bo‘lmasa ham muhabbati cheksiz, mehri bepoyon. Ba’zida otalarning e’tirofi chetda qolishining sababi ham shundandir. Shu shoir ijodida otalar mavzusiga murojaat qiladi va o‘quvchini «qalb sirlarin» oshkor qilib, otalarning sevgisini ham unutmaslikka dav’at etadi. Otalar madhi kamdan-kam shoirlar ijodida uchrashi ham shoir she’riyati mavzularining rang-barangligini ko‘rsatadi. Badiiy asarda qahramon to‘qima bo‘lishi, uni ijodkor gavdalantirishi tabiiy. Ammo, o‘quvchi ijodkor yaratgan qahramonga ishonadi, uni reallikda mavjuddek qabul qiladi. Xo‘sh, nega? Sababi, ijodkor qahramon yaratar ekan uni kuchli shaxsiy kechinmaga ega shaxs sifatida tasvirlay oladi; qahramoniga ongsiz tarzda hayot baxsh etadi, yuragini bir parchasini singdiradi. Shunday ekan shoir xalqi mavzu qilib olgan yo‘nalishga o‘quvchi ishonadi. Shoir chizgilaridan junbushga keladi. She’rdagi mavzu ota qadri bo‘lsa, undagi g‘oya farzandiga yashirin tarzda mehr ko‘rsatuvchi, uni har qadamda qo‘llovchi shaxs tasviri.

Mavzu termini ko‘p qirrali izoh va tushuntirishlarga ega. Sodda qilib aytganda mavzu asarning asosi, ijodkorning ilk qadami, ijodning yaratilishi. Mavzu va g‘oya bir-biridan ayri holda bo‘lmaydi. Chunki mavzu g‘oyaviy jihatdan aniqlangan, g‘oya esa mavzu rivoji natijasida ochilgan bo‘ladi. Tesha Saydaliyev she’riyatida mavzu va g‘oya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, shoir bir xil mavzuni turli badiiy talqin orqali yangi g‘oyaviy mazmun bilan boyitadi. Shoir she’rlarida Vatan, inson va tabiat mavzulari umumiy konsepsiya asosida birlashadi.

Termizdanman, do‘stim…
O, eshitganman.
Tuxum pishar emish yoz issig‘ida,
Temirchilar ba’zan kechib olovdan
Ishlasharmish quyosh tig‘ida.
To‘g‘ri do‘stim, to‘g‘ri,
Shahrim havosi
Olovday issiqdir hattoki tunda.
Chunki mash’al qilib el muddaosin
Olov qalblar yashaydi unda.[2]

Vatanni madh etib misralar bitmagan shoir mavjud emas. Vatan haqida qancha «ko‘p va xo‘p» kuylasangiz shuncha oz. Shoir sodda misralar, samimiy satrlar bilan yurtini tasvirlarkan asosiy urg‘uni uning tabiatiga qaratadi. Mubolag‘aviy tasvir orqali bu yurtda quyosh tig‘ida tuxum pishishini eslatib o‘tadi. Temirchilarning «olovdan kechishi» bejiz emas, albatta. Axir ona tabiat Surxon vohasini quyoshning ulkan tafti bilan siylagan. So‘nggi misralarda shoir Ona yurtining nega bunchalik issiq ekanligiga javob topganday bo‘ladi. Sababi, unda elim-yurtim deb yashayotganlar – olov qalblar mavjud. She’rda metaforik tasvir yordamida inson va tabiat mavzusi umumiy konsepsiya ostida birlashadi.

Nemis mutafakkiri Gegel «Tabiat – umuman osmon bilan yer, shuningdek, inson ham birgina havo bo‘shlig‘ida umr kechirmaydi, balki o‘zligini ariqlar, daryolar, tepaliklar, tog‘lar, vohalar, o‘rmonlar, daralardan iborat muayyan makon bag‘rida his etadi va faoliyat ko‘rsatadi»[3] deydi. Shoir she’riyatida qayta va qayta Vatan mavzusiga murojaat qilinadi. Vatan tabiati, uning suv va havosi, shaharlari, unda istiqomat qilayotgan insonlarni turli obrazlarda tasvirlaydi. O‘zini Vatan bilan bir butun holda, uning ajralmas bo‘lagi sifatida his qiladi. Bolaligining eng nozik xotiralari o‘tgan ona-Vatandan o‘zini bo‘lak holda anglolmaydi, unga singishib ketadi. Uning lirik qahramoni uchun Vatanning daryolari, qirg‘oqlari, buloqlari, bog‘lari – barchasi qadrdon, eski bir do‘stdek:

Salom, Surxon – qadrdon daryo,
Mis rang suving tanlarga davo.
Dilimda jo‘sh urgan bir dunyo
Qo‘shiqlardan bag‘ishlay senga[4].

Tesha Saydaliyevning ijodida ichki kechinmalar, intim lirikaga alohida o‘rin ajratiladi. Unda niyati sof, ko‘nglida g‘ubori bo‘lmagan yigit-qizlarning eng nozik tuyg‘ulari kuylanadi. Shoir sevgini pok tarzda, o‘zgalarga o‘rnak bo‘larli darajada kuylaydi.

Mash’aldek porlasin uzoq tunlarda.
Muhabbat – g‘amho‘rlik – mehribonlikdir,
G‘amxo‘rlik asosi bo‘lsin sevgimiz,

[1] Сайдалиев Т. Кўнгил гавҳари: (Сайланмалар). – Термиз: Китоб нашр, 2022. – Б.16.
[2] Сайдалиев Т. Кўнгил гавҳари: (Сайланмалар). – Термиз: Китоб нашр, 2022. – Б.12.
[3] Гегель.Эстетика ёхуд санъат фалсафаси ёхуд бадиий ижод фалсафаси.1-жилд. М.Абдуллаев таржимаси. Фарғона. 2011. – Б.208.
[4] Сайдалиев Т. Кўнгил гавҳари: (Сайланмалар). – Термиз: Китоб нашр, 2022. – Б.23.

Zarracha ham g‘ubor tegmasin unga.
Hammani ham birdek shod etaylik biz![1]

Shoir sevgisiga gard tekizishni xohlamaydi. Uni pok holda saqlab, boshqalarga o‘rnak bo‘lishini istaydi. She’rda asosiy mavzu sifatida shoirlarga xos sevgi madh etilgan bo‘lsa, poklik orqali eng buyuk hissiyotlarga erishish uning g‘oyasidir.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shunday yozadi: «Tesha Saydaliyevning ko‘pchilik she’rlarida …jo‘shqin lirizm kuchli ehtiros va chinakam yoshlik temperamenti bilan qo‘shilib ketgan. Bu jihatdan, ayniqsa, uning «Qayna, yurak» she’ri diqqatga sazovor. Shoir bu she’rida ham boshqa she’rlaridagi kabi soddalikka intiladi. Murakkab va mavhum metaforalar qidirmaydi, she’rga tumtaroq bezak bermaydi. Ammo u shunday jo‘shqin va haroratli misralar tuzadiki, ulardagi jo‘shqinlik yuksak poetik kayfiyat tug‘diradi». Darhaqiqat, shoirning she’riyati sodda, ammo shu bilan bir qatorda u ko‘ngildan joy olib, unda o‘rnasha oladi. Ortiqcha jimjimadorliksiz fikrni badiiy tarzda yetkazish chinakam ijodkorga xos asosiy xususiyatdir. Tesha Saydaliyev fikrini dalillash, ijod namunasiga bezak berish uchun ortiqcha so‘z qidirmaydi. Samimiy va ko‘ngildan chiqarib yozadi. Ijodkor u yoki bu g‘oyaga tayanar ekan unga o‘zining emmotsional dunyoqarashini singdirishi rad etib bo‘lmas haqiqat. Shoir lirik merosidan shuni narsa aniqki, u mavzuni tanlab o‘tirmaydi. Umumiy mavzular xususida qalam tebratsa ham, ularga original g‘oya asosida yondashadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Tesha Saydaliyev she’riyatida mavzu va g‘oya o‘zaro chambarchas bog‘liq badiiy hodisadir. Shoir tanlagan mavzular tasodifiy emas, balki ma’lum ma’naviy-estetik g‘oyani ifodalashga xizmat qiladi. vatan, inson, muhabbat va tabiat kabi mavzular orqali ezgulik, vatanparvarlik, komil insonni tarbiyalash hamda milliy qadriyatlarni ulug‘lash g‘oyalari ilgari suriladi. Bu esa shoir lirikasining g‘oyaviy-badiiy yaxlitligini belgilovchi asosiy xususiyatlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Tesha Saydaliyevning ijodida mavzu hamda g‘oya tushunchalari yagona konsepsiya asosida birlashadi. Shoir lirikasida Vatan, inson, muhabbat va tabiat mavzulari alohida emas, balki yagona qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Ularning barchasi insonni ezgulikka, ma’naviy kamolotga va hayot go‘zalligini anglashga chorlaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada Tesha Saydaliyev ijodidagi mavzu va g‘oya tushunchalari yagona konsepsiya asosida birlashishi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Resume. This article provides a scholarly analysis of the unity of the concepts of theme and idea in the works of Tesha Saydaliyev within the framework of a unified concept.

Резюме. В данной статье на научной основе проанализировано единство понятий темы и идеи в творчестве Теши Сайдалиева в рамках единой концепции.

[1] Сайдалиев Т. Кўнгил гавҳари: (Сайланмалар). – Термиз: Китоб нашр, 2022. – Б..60